Forsayt esa kelajakda nima bo‘lishi mumkinligini tekshiradi. U bir nechta variantlarni ko‘rib chiqadi. Muhimi, bashorat qanday harakatlarni amalga oshirish mumkinligini ham aniqlaydi va turli harakatlarga olib keladigan ssenariylarni tavsiflaydi.

Ko‘pgina institutlar turli yo’llar bilan ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun forsayt dan foydalanadilar. Jumladan, Jahon banki yaqinda Yevropada qabul qilayotgan qaror va harakatlarimiz rivojlanayotgan mamlakatlarga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani haqidagi xabardorlikni oshirishga e’tibor qaratdi. Bundan tashqari, forsayt Yevropa maml

katlarida, milliy va mintaqaviy darajalarda siyosatshunoslik yo‘nalishida muhim vosita sifatida tobora ko‘proq foydalanilmoqda, bu esa siyosatchilarga kelajak haqida ko‘proq mas’uliyatli va muhim qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini yaratib beradi [5].

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot ishida quyidagi masalalar tahlil qilinadi: birinchidan, huquq ijodkorligida forsayt tahlilning o‘rni va ahamiyati, huquq ijodkorligi faoliyatini sotsiologik va ekspert-tahliliy ta’minalash masalalari, ikkinchidan, huquq ijodkorligida forsayt tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tizimli tadqiq etish, uni huquq ijodkorligidagi ahamiyati va zaruriyatini aniqlash hamda tahlil qilish, forsayt metodlarini o‘rganish, shuningdek, huquq ijodkorlik sohasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Yuqorida sanab o‘tilgan masalalarga javob topish maqsadida mazkur tadqiqot ishida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va dedukiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar keng qo‘llangan.

Tadqiqot natijalari

Forsayt nisbatan yangi atama sanalganligi sababli unga hali mukammal ta’rif ishlab chiqilmagan. Shunday bo‘lsa-da, ko‘plab olimlar unga o‘z izlanishlari asosida ta’rif berishgan. Yevropaning Panel for the Future of Science and Technology (STOA) [6] tashkiloti olimlarining ta’rifiiga ko‘ra: “Forsayt – kelajakda nima sodir bo‘lishi mumkinligini, unga tayyoragarlik ko‘rish uchun tahliliy jarayon. Bu kelajakni bashorat qilish emas, balki kutilmagan hodisalarini minimallashtirish haqidadir”. “Garchi kelajakka qiziqish asrlar davomida mavjud bo‘lsa-da, forsayt juda yangi va qiziqarli tahliliy yondashuvni taqdim etadi. Forsayt – menejment, iqtisod, ijtimoiy fanlar va texnologiya chegaralari bo‘ylab tarqaladigan fanlararo bo‘lim”, – deydi “Kelajakshunos-

larning qisqacha tarixi” asarida Vendi Shultz (2015).

Forsayt orzular, bashoratlar yoki prognozlarga murojaat qilmasdan kelajakning noaniqligi va oldindan aytib bo’lmasligini hamda ushbu kelajakni shakllantirish uchun ma’lumotlar va intellektga bo’lgan ehtiyoj o’rtasidagi muvozanatni nazorat qilishga harakat qiladi. Forsayt o’zaro ta’sir tahlili va sintezi, tizimli fikrlash, chalkashliklar, uzoq muddatli va jiddiy noaniqliklarni oldindan rejalashtirish kabi muhim ko’nikmalarni rivojlantiradi. U mumkin bo’lgan, ehtimoliy va afzal kelajak haqidagi vaziyatni bilish; real vaqt rejimida mavjud va yangi paydo bo’lgan ma’lumotlarni saralash va uni qat’iy tizimlarga solish kabi bir qator ko’nikmalarga asoslanadi. Ya’ni bu mumkin bo’lgan ssenariylar va yo’l-yo’riqlarni o’rganishni, kelajakdagi xavf va imkoniyatlarni aniqlashni va potensial javoblarni tizimli ravishda takrorlashni o’z ichiga oladi [7].

Bulardan tushunadigan bo’lsak, forsayingning vazifasi: kelajakni taxmin qilish emas, balki qaror qabul qiluvchilar va yetakchi ekspertlarning fikrlari bilan kelishgan holda kelajakni “maqsadli” ko’rishni shakllantirish va asosiy muammolarga javob berish hamda tegishli maqsadlarga erishish uchun uzoq muddatli harakatlar dasturini ishlab chiqishga urinishdir.

Bilamizki, huquq ijodkorligi – vakolatli davlat idoralari va mansabdor shaxslarning (referendum chog’ida – butun xalqning) huquq normalarini o’rnatish, o’zgartirish, takomillashtirish va bekor qilishga yo’naltirilgan maxsus faoliyatidir. Huquq ijodkorligi faoliyatiga nafaqat yangi huquqiy normalar o’rnatish, balki ilgari chiqarilgan normativ-huquqiy qoidalarni o’zgartirish va bekor qilish ham kiradi.

Endi ushbu sohaga forsaytni qo’llash deganda huquq ijodkorligidagi real holat va muammolarni aniqlash hamda uning yuqori darajada rivojlanishini aniqlab, shunga qarab keyingi harakatlar maqsadli rejalashtiriladi.

Ya’ni huquq ijodkorligini takomillashtirishning bir usuli bo’lib, huquq ijodkorligidagi real holat va muammolarni aniqlash hamda kelajakdagi istalgan ko’rinishni yaratib, ushbu natijaga erishish strategiyasini ishlab chiqish tushuniladi. Ushbu tizim 4 xil (lekin o’zaro bog’liq) bosqichlarni o’z ichiga oladi:

- kirish (strategik aql-idrok (razvedka ma’lumotlar);
- bashorat (tahlil, talqin, istiqbol);
- natijalar (kengaytirilgan yoki yangi is-tiqbollar/strategik variantlar);
- strategiya (va/yoki strategik rejalashtirish).

Davlat huquqiy normani o’rnatish yoki ma’qullash orqali huquqni qo’llash va huquqni qo’riqlashdek serqirra, murakkab jarayonga turki beradi. Huquq ijodkorligi tufayli vujudga keltiriladigan huquq normalari davlat idoralarining turli xil rasmiy hujjatlarida aks ettiriladi. Bunday rasmiy hujjatlar normativ-huquqiy hujjatlar deb ataladi. Huquq ijodkorligi davlat xarakteriga ega bo’lgan aktiv faoliyatadir. Davlat idoralari jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish funksiyasini amalga oshirib boradilar. Bu esa huquq ijodkorligi jarayoni beto’xtov davom etib turishini taqozo qiladi. Huquq ijodkorligi faoliyati o’z mohiyatiga ko’ra davlat irodasini ifodalash bilan bog’liq. Davlat tashkiliy kuch bo’lsa, huquq yuridik qoida shakliga kirgan irodadir. Huquq ijodkorligi o’z mazmuniga ikki toifa harakatni qamrab oladi: *birinchidan*, huquq ijod etuvchi organlarning normativ hujjat loyihasini tayyorlash bo’yicha harakatlari, ya’ni loyihani ishlab chiqish to’g’risidagi qarorni qabul qilish; loyihani tayyorlash; loyihani muhokama etish; uni manfaatdor idoralar bilan kelishib olish va qo’shimcha ishlov berish; *ikkinchidan*, bu toifaga normativ hujjatni chiqarish bo’yicha harakatlar kiradi: huquqiy hujjat loyihasini huquqni ijod etuvchi organ muhokamasiga kiritish; huquq ijod etuvchi organ tomonidan loyihani muhokama etish; normativ-huqu-

qiyligi hujjatlarni qabul qilish va uni e'lon qilish (nashr etish). Ta'kidlab o'tish lozimki, huquq ijod etishning mazkur bosqichlari (harakatlar) ba'zan birlashib ketishi, ba'zan esa yangi xatti-harakatlar bilan to'ldirilishi mumkin.

Xususan, yakka tartibda huquqiy hujjat qabul qiluvchi mansabdar shaxs ushbu bosqichlarni birlashtirib yuborishi mumkin. Masalan, Prezident farmon chiqarganda yoki hokim farmoyish qabul qilganda aytib o'tilgan bosqichlarni birlashtirib, o'zi bajaradi. Ayrim hollarda yuqoridagi bosqichlardan tashqari, loyiha yuzasidan mutaxassis-olimlarning xulosasini olish, uni ekspertizadan o'tkazish va loyihani keng xalq muhokamasiga qo'yish kabi xatti-harakatlar ham amalga oshiriladi.

Huquq ijodkorligi faqat qonun loyihasi yoki huquqiy qarorni ko'rib chiqish va qabul qilish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon davlat idoralaring amaldagi huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish, eskirgan yuridik normalarni bekor qilish va mavjud normativ hujjatlarni tizimlashtirishga qaratilgan faoliyatini o'z ichiga oladi.

Endi ushbu sohaga forsaytni qo'llash deganda huquq ijodkorligidagi real holat va muammolarni aniqlash hamda nima qilsa u yuqori darajada rivojlanishini aniqlab, shunga qarab keyingi harakatlar maqsadli rejalashtiriladi.

Umumiy xulosa shuki, huquq ijodkorligida forsayt tahlil deganda, huquq ijodkorligini takomillashtirishning bir usuli bo'lib, huquq ijodkorligidagi real holat va muammolarni aniqlash hamda kelajakdagi istalgan ko'rinishini yaratib, ushbu natijaga erishish strategiyasini yaratish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyatni institutlari bilan maslahatlashuvlar o'tkazish amaliyotini takomillashtirish, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligi, si-

fati va samaradorligini ta'minlash maqsadida "aqlli tartibga solish" modeli elementlarini qo'llash doirasida qonunchilik hujjatlarining tartibga solish ta'sirini baholashni rivojlantirish va kengaytirish, huquq tizimining riqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning yangi drayverlarini harakatga keltirish doirasida zamonaviy texnologiyalarga va raqamli faoliyatga bo'lgan talablarni qayta ko'rib chiqish, sohalarda "tartibga solish yuki"ni kamaytirish doirasida qonunchilik hujjatlarini qisqartirish, davlat organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ni tizimlashtirish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish vakolatiga ega davlat organlari doirasini qisqartirish, shuningdek, ushbu hujjatlar sonini maqbullashtirish ishlarni davom ettirish" kabilar belgilab berildi.

Shu o'rinda aytish joizki, dunyoda so'nggi yillarda texnologik taraqqiyot keskin sur'atlarda o'sgani sari kelajakni rejalashtirishning samarali usullaridan foydalanimoqda. Shu jumladan, ulardan eng tarqalganlaridan biri bo'lgan "Forsayt" usullaridan foydalanishga o'tilmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bevosita davlatlarning siyosiy jihatdan rivojlanishida ham yangi qarashlardagi tahlil va islohotlarning qo'llanishi juda muhimdir, shuningdek, huquq ijodkorligi sohasida ham forsayt kabi yangi texnologiyalarni qo'llashni bugungi zamon talab qilyapti, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki huquq ijod etish davlatning yuridik normalar yaratishga qaratilgan maxsus faoliyatidir. Davlat mazkur faoliyat orqali xalqning irodasini qonun darajasida ifoda etadi, ijtimoiy boshqaruva siyosiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bu faoliyat natijasida jamiyatda harakatlanuvchi bir butun va ichki aloqaga ega bo'lgan, huquqiy normalar tizimi vujudga keltiriladi. Har bir fuqaro har kuni bironbir huquq normasiga to'qnash keladi. Huquq normalari qanchalik samarali bo'lsa, hayot va turmush farovonligi oshadi. Har jihatdan pi-

shiq, puxta tayyorlangan qonunlarda hayotiy va xalqchil tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etsa, uni amaliyatga tatbiq qilish ham samarali kechadi. Aksincha, amalga oshirishning aniq mexanizmiga ega bo'limgan, faqatgina umumiylasalarni hal etadigan qonun hujjalarni qabul qilish amalda ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli ushbu sohaga yangi texnologiyalarni qo'llash joiz.

Xususan, forsayt uzoq muddatli mumkin bo'lgan muqobil kelajakni bashorat qilish emas, balki odamlarning o'zlarini va boshqa-larning xatti-harakatlari qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqidagi refleksligini oshirish uchun ularni o'rganishdir. So'nggi bir necha o'n yilliklarda biz tobora ko'proq ijtimoiy muammolarga duch kelmoqdamiz. Masalan, iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi, iqtisodiy inqiroz, aholining tez qarishi, qashshoqlik va hokazo.

Ilgari forsayt tadqiqotlari nashr etilgan bo'lib, ular jamiyat uchun kelajakdagi muammolar ehtimoli haqida xabardorlikni oshirgan. Masalan, 1972-yilda Rim klubi "O'sish chegaralari to'g'risida"gi hisobotni nashr etdi [8], bu esa cheklangan resurs ta'minoti bilan eksponensial iqtisodiy va aholi o'sishining kelajakdagi xavflari haqida xabardorlikni oshirdi. Biroq bunday oqibatlarning oldini olish uchun yetarlicha chora ko'rmadik. Aslida, iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panelning yillik hisobotida (2014) iqlim o'zgarishi endi imkon emas, balki mavjud muammo ekanligi ta'kidlandi. Biz ko'rib chiqilayotgan masalani uzoq vaqt davomida e'tiborsiz qoldirganimiz sababli, bugungi kunda biz endi iqlim o'zgarishidan qochib qu'tula olmaymiz. Agarda biz boshqacha harakat qila boshlasak, faqat uning ta'sirinigina cheklashimiz mumkin, xolos.

Garchand forsayt yangi atama sifatida ko'rilibayotgan bo'lsa-da, lekin undan 1990-yillardan boshlab uzoq muddatli istiqbolni belgilashda AQSh, Yevropa, Osiyo, Lotin Amerikasidagi iqtisodiy rivojlangan bir qancha davlatlar keng foydalana boshlashdi. For-

sayt loyihalari natijalari asosida keng masshatbli Xalqaro tadqiqot dasturlari ishlab chiqilgan, jumladan Yevropa Ittifoqining Oltinchi va Yetinchi ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish dasturining budget xaratatlari 17,5 va 54 mlrd yevroni tashkil etgan. Shvetsiyaning oxirgi forsayt loyihasi uchun 3,6 mln yevro, Turkiyada esa 2 mln yevroga yaqin mablag' sarflangan" [9]. Forsayt tadqiqotlar borasida EFMN (The European For sayt Monitoring Network) Yevropa forsayt tadqiqotlar monitoringi tizimi, FISTERA – axborotlashgan jamiyat sohasidagi loyihalari tizimi faoliyatini misol qilishimiz mumkin. EFMN Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladi va "Yevropa bilimlar almashinuv platformasi"ning bir qismi hisoblanadi. Uning tarkibiga ARCSA, VDI, PREST, TNO, CKA, Atlantis, Fhg-ISI, Dialogik, Louis Lengand & Associates, Technology Centre Prague kabi tashkilotlar kiradi. 2006-yilgi ma'lumotlar bo'yicha EFMN monitoring portfoliosida Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda hamda Yaponiya, AQSh, Kanada, Xitoy, Koreya Respublikasi va Braziliyada bajarilgan 1000 ga yaqin forsayt tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lgan [10].

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, qonun ijodkorligi faoliyatiga forsayt texnologiyasini qo'llash masalasi ilg'or xorijiy mamlakatlar amaliyotida katta ahamiyatga ega. Bu sohada katta tajriba to'plangan. World Justice Project xalqaro fuqarolik jamiyati tashkiloti tomonidan yuritiladigan "Qonun ustuvorligi" indeksi bo'yicha Yaponiya 2022-yilda 16-o'rini egallaganini ko'rish mumkin [11]. Forsaytni amalga oshirish hukumat tomonidan buyurilgan va ijrochi Fan va texnologiya agentligi edi va hozirda u maxsus yaratilgan Fan va texnologiya siyosati milliy instituti deb nomlanadi. Forsayt natijalari Fan va texnologiyalar bo'yicha kengashga taqdim etiladi, u ham ishni to'g'ridan to'g'ri moliyalashtiradi. Forsayt materiallari fan va texnikani rivojlantirish sohasidagi milliy siyosatning, bevosita budget mablag'larini taqsimlashning real asosi bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, Yaponiya turli darajalarda juda ko'p forsaytlarni o'tkazgan, lekin ayni paytda aniq iyerarxiya saqlangan: hukumat darajasida ular umumiy qarashlar bilan shug'ullanadilar, vazirliklar makro darajada forsaytlar bilan shug'ullanadilar, kompaniyalar guruhlari va individual firmalar ham kichik forsaytlarni amalga oshirishi mumkin.

Avstriya (Ushbu davlat World Justice Project xalqaro fuqarolik jamiyati tashkiloti tomonidan yuritiladigan "Qonun ustuvorligi" indeksi bo'yicha 11-o'rinda turadi (2022) dasturining asosiy maqsadi biznes va ilm-fan o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va indikativ rejalashtirish ufqlarini kengaytirish orqali Avstriyaga uzoq muddatli istiqbolda yetakchi o'rinni egallash imkonini beradigan innovatsion salohiyatni aniqlashdan iborat [12]. Ilmiy-tadqiqot va muvofiqlash-tirishda asosiy rol Fanlar akademiyasining Texnologiyalarni baholash bo'yicha yetakchi institutiga tegishli edi. Fanlar akademiyasi tomonidan mazkur masalada bashoratli tadqiqotlar olib borildi, asosiy yo'nalishlar belgilandi, ekspertlar guruhlari tuzildi. Keyinchalik, Delfi usuli [13] bo'yicha ikkita loyiha amalga oshirildi, biri fan va texnologiya sohasida, ikkinchisi jamiyat va madaniyat sohasida. Bu davlatda ham Yaponiyaniki kabi ma'lum organga vakolat berilgan, ya'ni Fan va texnologiyalarni baholash instituti forsayt bilan davlat miqyosida shug'ullanadi. Shuningdek, Avstriya dasturining afzalligi shundaki, uni ishlab chiquvchilar birinchi marta texnologik va ijtimoiy sohalar uchun umumiy bo'lgan rivojlanish yo'nalishlarini topishga harakat qildilar.

Kanada (Ushbu davlat World Justice Project xalqaro fuqarolik jamiyati tashkiloti tomonidan yuritiladigan "Qonun ustuvorligi" indeksi bo'yicha 12-o'rinda turadi (2022). XXI asrning boshlarida Kanada milliy rivojlanish strategiyasini qayta ko'rib chiqishni talab qiladigan bir qator muammolarga duch keldi. Mamlakat hukumati tez rivojlanayotgan gigantlar – Hindiston va Xitoydan iqt-

sodiy ko'rsatkichlar bo'yicha, shuningdek, jahon miqyosida raqobatbardoshlikni saqlab qolish istiqbollari bo'yicha ortda qolayotgandan xavotirda edi. Ushbu ortda qolishni bartaraf etishning asosiy vositasi innovatsion faoliyatni faollashtirishdir. Shu munosabat bilan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlarini aniqlash, innovatsion ustuvorliklarni to'g'rilash va milliy innovatsion tizim rivojiga yangi sur'at berishga qaratilgan tizimli forsayt tadqiqotlarini o'tkazish g'oyasi paydo bo'ldi. Ish jahon miqyosidagi ilmiy va texnologik tendensiyalarni tahlil qilish va mamlakatga jahon miqyosida muvaffaqiyatli raqobatlashish imkonini beradigan chora-tadbirlarni topishga qaratilgan bir qator ekspert forsayt tadqiqotlariga asoslangan edi [14].

AQShda masalan, o'z farzandlari, nabilalari va yaqinlari uchun reja tuzmoqchi bo'lgan mijozlar bilan ishlaydigan Michigan shtatining Grand Rapids shahrida joylashgan Foresight Law Firm firmasi mavjud. Xuddi shunday Vashingtonda ham Foresight law+policy degan shaxsiy firma mavjud. Bundan tashqari, Strategic Legal Futures and Foresight (SLFF) huquqshunoslar, ayniqsa, strategik huquqshunoslar uchun bashoratli ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida faoliyat olib boradi. Ushbu kurs advokatlarga huquqiy proqnoz dasturlarini amalga oshirishga imkon beradi, bu esa o'z tashkilotlarning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, strategik va operatsion huquqiy xavflarni boshqarish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. AQShda Foresight Education tashkiloti bor. Ushbu tashkilot faoliyatining asosiy maqsadi ta'lim bo'yicha forsayt metodologiyasini dunyo bo'yicha targ'ib va ttabiq etishni tashkil etishdan iborat. Ushbu tashkilot mutaxassislari tomonidan Chexiya, AQSh, Niderlandiya, Xitoy, Bolgariya, Latviya kabi davlatlarida geografiya, biologiya, lingvistika, tarix, fizika, kimyo fanlari bo'yicha o'qituvchilar va talabalarga forsayt metodologiyasi bo'yicha o'quv kurslari, trening-

lar hamda seminarlar tashkil etilgan. Fore-sight Education portalining mualliflari va yaratuvchilari pedagogik jarayonda forsayt ta'limining dolzarbligini bayon etib, bu orqali ta'lim tizimida butunlay yangi sifat darajasiga chiqish mumkinligini qayd etishadi. Forsayt orqali bo'lajak mutaxassislar tezkor rivojlanish davrida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar va noaniqliklar, nostonart vaziyatlarda yuzaga kelayotgan hodisalarning rivojlanshini oldindan ko'ra bilish, bashoratlash hamda ularning yechimlari bo'yicha tezkor rejalarini shakllantirish kompetentliklariga ega bo'lishadi [15].

Xulosalar

Forsayt texnologiyasi u yoki bu davlat, u yoki bu sohaga qo'llanishi uchun yagona qolip yo'q, lekin umumiy tamoyillardan ke'lib chiqib, forsayt texnologiyasi metodlarini qo'llagan holda qulay va o'ziga xos modelni yaratib, shu asosda forsaytni rivojlantirish kalitlaridan biri sifatida foydalansa bo'ladi yoinki forsayt usulini keng ommalashtirish maqsadida birinchilardan bo'lib Toshkent davlat yuridik universitetida ham joriy etildi.

Huquq ijodkorligiga forsayt texnologiyasini qo'llash kerak. Zero, davlat strategiyasi ham huquqiy rivojlanishning ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini aniq aks ettirishga asoslangan ilmiy bashorat qilinishini (forsaytni) nazarda tutadi.

O'zbekiston huquq ijodkorligini ta'minlashda forsayt tahlilini qo'llaganda, uni 3 bosqichda hamda bir qancha forsayt metodlari birlashmasidan foydalansa maqsadga muvofig bo'ladi.

Huquq ijodkorligi faoliyatida forsaytni axborot-tahliliy ta'minotning samarali tizimi sifatida qo'llash huquq ijodkorligi subyektlarga normativ-huquqiy tartibga solishning ehtiyojlarini o'z vaqtida aniqlash, mamlakat aholisi manfaatlaridan kelib chiqib ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning yana-da maqbul loyihasini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Forsayt bo'yicha mutaxassislar juda kamligi sababli xorijiy davlatlardan forsayt ekspertlar chaqirib, trening darslar tashkil etish taklif etiladi.

Forsayt haqidagi bilimlarni targ'ib qilish uchun ilmiy anjumanlar va konferensiyalar tashkil etish kerak.

MDH davlatlari oliy yuridik ta'lim muassasalarida o'qitiladigan modul "Yuridik texnika" tarkibida "Huquq ijodkorligida forsayt tahlil" degan mavzu qo'shib, ushbu modul darsligida shu nomdag'i bob kiritilishi maqsadga muvofikdir.

Shuningdek, xorijiy olimlardan R. W. Lent, L. Mark, J. L. Swanson, M. Schneider va M. L. Savickasning ilmiy tadqiqotlarida forsayt asosida strategik rejorashtirish, konstruksiyalash, o'z karyerasini qayta ko'rib chiqish va rivojlantirish hamda yangi muhitga moslashishga tayyorlash, kasbiy xulq-atvor va kasbiy tanlovga oid masalalar keng yorilgan [16].

Shu nuqtayi nazardan Toshkent davlat yuridik universitetida ham o'quv mashg'ulotlarida forsayt texnologiyasidan foydalanish metodikasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish yo'lga qo'yilgan.

REFERENCES

1. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of State and Law]. Tashkent, Adolat Publ., 2018, p. 528.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati axboroti [Information from the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://senat.uz/oz/post/post-2468>
3. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi [The rule of law and ensuring human interests are the guarantee of the country's development

and the well-being of the people]. Speech by the elected President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the 24th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Available at: www.aza.uz

4. Georghiou L., Cassingena H.J., Keenan M., Miles I., Popper R. The Handbook of Technology Foresig, 2008.

5. Lieve V.W., Darja V. Scientific Forsayt Service. Towards Scientific Forsayt in the European Parliament. European Union, 2015, p. 30.

6. Ana S. Foresight manual. UNDP Global Centre for Public Service Excellence. Singapore, 2018, p. 50.

7. Martin B. Research Foresight and the exploitation of science base. HSMO, London, 1993. NISTEP. The 8th science and technology Foresight survey Delphi analysis. National Institute of Science and Technology Policy Tokyo, 2005.

8. Gloveli G. D. Predelov rosta teoriya [Limits to growth theory]. The Great Russian Encyclopedia. Moscow, 2015, vol. 27, pp. 400–401.

9. Sokolov A.V. Forsayt: vzglyad v budushcheye [Foresight: A Look into the Future]. *Foresight*, 2007, vol. 1, pp. 8–15.

10. Shelyubskaya N.V. Osnovy forsayta [Basics of Foresight]. Available at: <https://nep.ru/upload/block/7a8/7a955b301628b748b239ba1dda058097.pdf>

11. Denisov Yu.D. V Yaponii smotryat skvoz' Del'fi [In Japan, they look through "Delphi"]. *Foresight*, 2007, vol. 1/1, pp. 62–68. Available at: <https://www.hse.ru/data/2014/01/22/1208161097/1-2007.pdf>

12. Vozmozhno li ispol'zovaniye instrumenta tekhnologicheskogo forsayinga v Rossii? [Is it possible to use the technological foresight tool in Russia?]. Proceedings of the seminar. Available at: <http://stra.teg.ru/library/global/Prognoz/forsayt/11>

13. Bikkulov A.S., Salazkin M.S. Forsayt v Kanade: dva urovnya [Foresight in Canada: Two Levels]. *Foresight*, 2007, vol. 2, pp. 68–77. Available at: <https://foresight-journal.hse.ru/article/view/19582>

14. Sudakov D., Luksha P., Striyetska-II'ina O., Gregg K., Kristin Kh., Liana Kh. Rukovodstvo po primeneniyu tekhnologicheskogo forsayta dlya opredeleniya budushchikh potrebnostey v kompetentsiyakh [A Guide to Using Technology Foresight to Identify Future Skills Needs]. International Labour Office, Geneva, ILO, 2016.

15. Swanson J.L., Schneider M. Minnesota theory of work adjustment. In: S.D. Brown, R.W. Lent (Eds). Career development and counseling: Putting theory and research to work. NJ, Wiley, 2013, pp. 29–53.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 6-SON

VOLUME 4 / ISSUE 6 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.6.